

# MAHSULOT SOTISH TO'G'RISIDA

## 42 - SONLI SHARTNOMA

2022 yil "7" 11.

Farg'on'a tumani

**"FAROZIQOVQAT MAXSULOT" MCHJ** (bundan buyon matnda "**Sotuvchi**" deb nomlanadi) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **X.Teshaboev** bir tomondan va **Rishton tuman tibbiyot birlashmasi** (bundan buyon matnda "**Sotib oluvchi**" deb nomlanadi) nomidan nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **A.Usmanov** ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1.SARTNOMA PREDMETI.

1.1. Mazkur shartnomada bo'yicha "**Sotuvchi**" shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan mahsulotni belgilangan muddatlarda "**Sotib oluvchi**" ga sotishni, "**Sotib oluvchi**" mahsulotni qabul qilishni va xaqini o'z vaqtida to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. "**Sotuvchi**" jadvalda ko'rsatilgan quyidagi mahsulotlarni, "**Sotib oluvchi**" ga sotishni o'z zimmasiga oladi.

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Mahsulot qiymati	шундан	
						QQS	Summa
1	Guruch	kg	1500	9800	14700000	15	1917391.30
<b>Jami:</b>			<b>1500</b>	<b>X</b>	<b>14 700 000</b>		<b>1 917 391.3</b>

1.3. Shartnomaningumumiylar summasi: **14 700 000** o'n to'rt million etti yuz ming so'm.

### 2. TARAFLARNI XUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI:

#### 2.1. "**Sotuvchi**" ning xuquqlari:

a) Ushbu shartnomani 5.2 bandida ko'rsatilgan muddatlarda xisob kitoblar amalga oshirilishini "**Sotib oluvchi**" dan talab qilish

b) "**Sotib oluvchi**" shartnoma shartlarini buzgan holda mahsulotni qabul qilmasa yoki qabul qilishdan asossiz ravishda bosh tortsa, "**Sotuvchi**" shartnomani bajarishdan bosh tortish va zararni qoplashni talab qilishga;

v) "**Sotib oluvchi**" tomonidan maxsulot uchun xisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda yetkazilgan zararni qoplashni undan talab qilishga xaqlidat;

g) "**Sotib oluvchi**" shartnomani 5.2.. bandida belgilangan majburiyatni bajarmasa, "**Sotuvchi**" maxsulotni o'z ixtiyoriga ko'ra sotish va ushbu sotishdan ko'rilgan zararni "**Sotib oluvchi**" dan talab qilishga haqlidir;

#### 2.2. "**Sotuvchi**"ning majburiyatları:

a) Shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni "**Sotib oluvchi**" tomonidan berilgan buyurtmada ko'rsatilgan miqdor va muddatlarda ombordan berish:(sotish).

b) sotilayotgan mahsulotni sifati va navi standartlar , texnik shartnomaga mos kelishini ta'minlash;

v) Mahsulotga to'lov yoki tovar-transport xujjalarni mahsulot qabul qilingan kuni rasmiylashtirib berish;

g) "**Sotuvchi**" masulotni yetkazib berolmay qolgan qismini ushbu xolat aniqlangandan keyin 10 kun ichida yetkazib berish lozim;

d) Agar "**Sotuvchi**" shartnomaning

1.2. bandida ko'rsatilgan majburiatlarni uzrli sabablarga ko'ra bajara olmasa, 2022 yil "30" Noyabr gacha "**Sotib oluvchi**"ga sabablarini tasdiqlovchi xujjalarni taqdim etish; e) Mahsulot sotish

bo'yicha shartnomaviy rejalar bajarilmagan xolatlarda, "**Sotib oluvchi**"ga to'langan mablag'lar bo'yicha qarzdarlikni qoplash;

#### 2.3. "**Sotib oluvchi**"ning huquqlari:

Mahsulotni sifati va navi standartlar, texnik shartlarga mos kelishni "**Sotuvchi**"dan talab qilish;

"**Sotuvchi**"dan ushbu shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni buyurtmaga asosan o'z vaqtida ushbu shartnomada ko'rsatilgan manzilgohda topshirishni talab qilish;

Zarur sifatga muvofiq bo'limgan mahsulot yetkazib berilganda "**Sotib oluvchi**" o'z hoxishiga ko'ra "**Sotuvchi**"ga mahsulotni qaytarish;

Zarur sifatidagi mahsulotni "**Sotuvchi**" o'z hisobidan sotib oluvchiga qayta yetkazish

Muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'limgan holda sotilgan mahsulotni qabul qilishni rad etish.

"**Sotuvchi**"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni boy berilgan foydani talab qilishga xaqlidir.

#### 2.4. "**Sotib oluvchi**"ning majburiyatları:

- a) "Sotib oluvchi" shartnomada ko'rsatilgan mahsulotlarni ko'rsatilgan muddatlarda "Sotuvchi" ning omboridan olib ketishni o'z zimmasiga oladi  
b) ) "Sotib oluvchi" ushbu shartnomada belgilangan muddat va tartibda mahsulotni umumiyl summasini oldindan 30 % miqdorda to'lab beradi va mahsulot berilgandan so'ng 70 % miqdorini to'lab berishni o'z zimmasiga oladi.

### 3. SHARTNOMANING BAJARILISHI

3.1. Majburiyatlar mazkur shartnoma shartlari va qonun xujjatlari talablariga -muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar taraflar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishi ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi;

3.2. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi mahsulotni qabul qilish bo'yicha yakuniy xujjatlar tuzilgan sana "Sotuvchi" tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Yakuniy hisob-kitoblarni fo'loy xujjatidagi bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana mahsulotga xaq to'lash bo'yicha "Sotib oluvchi" tomonidan majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

3.3. Olinadigan turkumdag'i mahsulot uchun tegishli bo'lgan xaq "Sotuvchi"ning bank hisob raqamiga kelib tushganidan so'ng, "Sotuvchi" tomonidan ushbu shartnoma va shartnoma asosida berilgan buyurtmada ko'satilgan miqdordagi mahsulotni "Sotib oluvchi" ga tegishli yuk xati asosida yetkazib beradi.

3.4. Shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan miqdordagi mahsulot berilgan buyurtmalar asosida yetkazib beriladi.

3.5. Mahsulotni yetkazib berish uchun buyurtma tegishli turkumlarini yetkazib berishning mo'tjallanayotgan sanasidan chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmani chopar orqali qabul qilishda "Sotuvchi"ning xodimi "Sotib oluvchi" da keladigan nusxaga sanani ko'rsatgan xolda u qabul qilganligi haqida belgi qo'yadi.

"Sotib oluvchi" ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yoxud mahsulotni tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga xaqlidar, bu xaqda "Sotuvchi" ni buyurtmada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 5 kun oldin xabardor qiladi.

3.6. "Sotib oluvchi" mahsulotni qabul qilishda, uni soni va sifatini joyida tekshirib ko'rishi shart, mahsulot qabul qilinib yuklashgandan keyin uning saqlanishiga "Sotib oluvchi" ning o'zi javob beradi.

### 4. MAHSULOT SIFATI.

4.1. "Sotuvchi" etkazib beriladigan mahsulotni sifati GOST, TSh talablariga javob berishini ta'minlaydi, mahsulotni tegishti sifat sertifikatlari bilan yetkazib beradi.

4.2. Mahsulotni sotib olgandan so'ng uning sifati bo'yicha javobgarlik **sotib oluvchi** zimmasiga o'tadi.

### 5. MAHSULOT BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

5.1. Mahsulot uchun xisob-kitoblar pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.2. Mahsulot yetkazib berishga tayyor bo'lganligi to'g'risida "Sotuvchi", "Sotib oluvchi" ni yozma ravishda xabardor qilgandan so'ng, "Sotib oluvchi" beriladigan turkum mahsulot bahosini 30 % miqdorda oldindan xaqini to'lab beradi va mahsulot berilgandan so'ng 70 % miqdorini to'lab berishni o'z zimmasiga oladi.

5.3. Agar berilayotgan mahsulotga (xom ashyo, yordamchi materiallar, elektr energiya, gaz va yokazo) ketadigan surf xarajatlar narxi o'zgargan xollarda, ushbu mahsulotning narxi o'zgartirilishi mumkin.

### 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Mahsulot berish muddatlari kechiktirib yuborilganligi, to'liq yetkazib berilmaganligi uchun "Sotuvchi", "Sotib oluvchi" ga kechiktirilgan xar bir majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyl summasini yetkazib berilmagan mahsulot summasining 50 % dan oshmasligi lozim.

6.2. Mahsulot sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan mahsulot berganligi uchun "Sotuvchi", "Sotib oluvchi" ga ushbu mahsulot bahosining 5 % miqdorida jarima to'laydi.

6.3. But bo'lmagan mahsulot yetkazib berilganligi uchun "Sotuvchi", "Sotib oluvchi" ga yetishmayotgan qismlar qiyomatini qushgan xolda, but bo'lmagan mahsulot qiyomatining 5 % miqdorida jarima to'laydi.

6.4. Berilgan mahsulotni tanlab olimganligi yoki tanlab olisini asossiz rad etganligi uchun "Sotib oluvchi", "Sotuvchi" ga tanlab olimmagan yoki muddatida olimmagan mahsulot bahosining 5 % miqdorida, tez buziladigan mahsulot uchun esa 10 % miqdorida jarima to'laydi.

6.5. Shartnomada ko'rsatilgan mahsulot uchun o'z vaqtida xisob-kitobni amalga oshirmaganlik uchun "Sotib oluvchi", "Sotuvchi" ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun keltirilgan to'lov summasini 0.5 % miqdorida penya to'laydi, bunda penya summasini kechiktirilgan to'lov summasining 50 % dan ortiq bo'lmashligi kerak.

## **7. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIK DAN OZOD ETISH.**

7.1. Taraflardan biri shartnomani yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, kurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar va hokazo) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarilganligini (fors-major holatini) isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

## **8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.**

8.1. Ushbu shartnomani bajarilishi yuzasidan kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal etiladi.

8.2. Taraflar o'zaro kelisholmagan nizolar iqtisodiy sudi tomonidan hal qilinadi.

## **9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

9.1. Shartnomma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyatini oladilar me'yoriy hujjatlarga. shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni bir-birining tomonlari yoki davlat mansabdor shaxsiga pora berish yoki vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy manfaatlardan qochish kerak. Tomonlar bunday xatti-harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilib chiqishga kafolatlaydi.

9.2 Korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari buzilganligi yoki asosli shubha tug'ilganligi to'g'risida tomonlar darhol yozma ravishda xabardor qilishlari shart. Bir-birlarini shaxsan (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiy atioladi Bunday holda, tomonlar vaziyatni aniqlashtirish uchun yozma tushuntirishni talab qilishga haqli. Mulkdor va murojaatni qabul qilgan tomon 10 (o'n) ish kuni ichida tushuntirish berishga yoki o'z fikrini bildirishga majburdir.

9.3 Ushbu bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan korrupsiya xavfini belgilangan muddatlarda bartaraf etilmagan taqdirda taraflar tomonidan ko'rilib choralar korrupsiya holatining pasayishiga olib keladi. Aks holda, boshqa tomon shartnomani bekor qilishga yoki uning bajarilishini to'xtatib qo'yishga haqli.

9.4 Sotib oluvchiga yetkazib berilgan maxsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqni Rasmiylashtirish sanasi Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

9.5 Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingikun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqeal sodir bo'lgan kundan boshiab hisoblanadi.

## **10. SHARTNOMANI BOSHQA SHARTLARI.**

10.1. Ushbu shartnomma tomonlar imzolagan vaqtidan boshlab kuchga kiradi, shartnomaning muddati 2022 yil 31 dekabrgacha to'la ijro etilgunga qadar amalda bo'ladi.

10.2. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda kiritiladi va har ikkala tarafning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanada.

10.3. Shartnomma bir hil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan.

## **10. TOMONLARNING REKVIZITLARI.**

### **"SOTUVCHI"**

**"FAROZIQOVQAT MAXSULOT" MChJ**

ko'chasi, № 1-uy

X/r: 2020 8000 4052 9764 5001

MFO: 01155 INN: 307862971

Hamkorbank ATB Farg'onona mintaqaviy fil-i

Index: 150414 OQS kodi: 330190131706

e-mail: [faroziqovqat@mail.ru](mailto:faroziqovqat@mail.ru) Tel: (97) 965-00-07

Rahbar:

X.Teshaboev



### **"HARIDOR"**

**Rishton tuman tibbiyot birlashmasi**

Ar roshidoni 276 uy

Shxr 100022860302247073101054002

INN 200181854 MFO 00014

X/R 23402000300100001010

INN 201122919



Rahbar:

A.Usmanov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

JM3536678723

1. Loyihaning turi : Shartnoma 42

2. Loyihaning nomi: **Mahsulot vetkazib berish haqida**

Taraflar: Tibbiyot birlashmasi hamda "Faroziqovqat mahsulot" MChJ

Shartnoma mazmuni: 14 700 000(o'n tort million yetti yuz ming)

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Rishton tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 01.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amalidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Rishton tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:



B.I.BO'RIYEV

01.11.2022